



## SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MAS’ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISH

*Ibragimova Shahlo Oyturaxonovna*

*Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sinergetik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish dolzarb muammo ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** sinergetika, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar, pedagogik hamkorlik, mas’uliyat hissi, adekvat.

Jamiyatimizda ulg`ayib borayotgan har bir yosh avlodni tarbiyalash nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo`lib, juda qadimdan ushbu murakkab vazifaga jamiyatning yetuk bilimga ega bo`lgan kishilari jalb etilgandir. Ushbu holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etilish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Egallanishi lozim bo`lgan bilimlarning poydevori boshlang`ich ta`lim sohasida berilar ekan, aynan, bu sohadagi o`qituvchi bolalarni sevishi, ular bilan ishlashga qiziqishi lozim. Shuningdek u ziyrak va kuzatuvchan bo`lishi hamda pedagogik tasavvur, bunyodkorlik, tashkilotchilik, haqqoniylik, talabchanlik, qat`iylik, maqsadga intilish kabi xislatlarga ega bo`lishi kerak. Boshlang`ich ta`lim o`qituvchilaridan bilish sohasida keng ilmiy salohiyat, ma`naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish pedagogik ma`lumotni oshirishga intilish talab etiladi.

Bugungi kunda sinergetikaning ta`lim sohasiga kirib borishiga ta`lim jarayonining “sinergetikligi“ to‘g‘risidagi g‘oyaning asoslanganligi bu sohada tatqiqot olib borilishi lozim bo`lgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Sinergetika atamasi yunonchadan olingen bo`lib “hamkorlik“ manosini anglatadi hamda tashkiliy tuzilmaning yaxlit bir butunlikda tashkil bo`lishida hamkorlikdagi munosibatlarini anglatadi.

Pedagogik hamkorlik, ya’ni sinergetika yangi tushuncha sifatida pedagogikaga kirib kelar ekan, u bevosita falsafa va sotsiologiya bilan bog‘lanadi. Chunki, insonning hamkorlikdagi faoliyati muayyan jamiyat hayoti bilan bog‘liq tarzda amalga oshadi. Bu shuni anglatadiki, jamiyat hayotida inson uchun hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish quvvati bilan bir qatorda, hamjihatlikda rivojlanish imkoniyati ham mavjud. Pedagogik hamkorlik doirasida o‘z qiyofasini o‘zgartirish tushunchasi ham amal qiladi. Agar yangicha ijtimoiy davr shaxsning o‘z-o‘zini saqlashi, yangi sharoitga moslashishi g‘oyasiga asoslansa, zamonaviy inson o‘zining yangicha mohiyati va mavqeiga asoslangan holda faoliyat ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogika nazariyasida o‘yin kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun asosiy faoliyat turlaridan biri sifatida qaraladi. Bolaning asosiy talablari shunda o‘z ifodasini topadi. Eng avvalo mustaqillikka intilish, kattalar hayotida faol ishtirok etish mazkur yoshdagagi bolalarga xosdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining rivojlanishiga ko‘ra u tomonidan anglanayogan dunyo kengayib boradi, kattalar faoliyatida ishtirok etishning ichki talablari paydo bo‘la boshlaydi. O‘yinda bola kattalarga taqlid qilishga intilgan holda ba’zi rollarni o‘ziga ola boshlaydi. Bola o‘ynab turib mustaqil harakatlanadi, o‘z xohishlarini, tasavvurlarini, tuyg‘ularini erkin ifodalaydi. O‘yin natijasida boshqa faoliyat turlari ham paydo bo‘ladi va tabaqalashuv amalga oshadi. O‘yin davomida bola boshqa faoliyatlarga tegishli bo‘lgan komponentlarni ham o‘zlashtira boradi. Masalan, maqsad qo‘yishni, rejalahtirishni, natijaga erishishni o‘rganadi.



Xuddi shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilish faoliyati ham xarakterlidir. Aqliy tarbiyaning mazkur jihatni bolada taafakkur amallarini, bilish jarayonlarini va qobiliyatlarini rivojlantirish sifatida qaraladi. Tafakkur faoliyati nutqsziz bo‘lishi mumkin emas. Bola nutqqa ega bo‘la turib, u mos so‘zlarda o‘z aksini topgan predmetlar, belgilar, harakatlar va munosabatlar haqidagi bilimlarga ega bo‘ladi. Bola nutqqa ega bo‘lganidan so‘ng, u atrof olamga boshqacha nazar bilan qaray boshlaydi. U nafaqat bevosita ko‘rib turgan predmetlari bilan ish bajaradi, balki ayni vaqtida uning shaxsiy tajribasida uchramaganlari bilan ham amallar bajara boshlaydi. Bu esa uning bilish faoliyati chegaralarini kengaytiradi: u o‘zi bilgan vositalardan o‘z dunyoqarashini kengaytirishda badiiy asar, kattalarning hikoyasi, tushuntirishlari kabilardan foydalanadi. Shu sababli mas’uliyatlilikni shakllantirish muammosini o‘rganishda kichik mакtab yoshidagi bolalarda nutqiy-bilish faoliyatiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘ziga xos jihatni shundaki, ular jamoadagi shaxslararo sub’ektiv hamda hamkorlikka asoslangan munosabatlarni farqlay olmaydilar. O‘quv jarayonining dastlabki davrida mакtabgacha ta’lim davridagiga nisbatan hamkorlik doirasining kengayishi kuzatiladi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarda yangi faoliyat turining paydo bo‘lganligi bilan izohlanadi. Mazkur faoliyat o‘quv faoliyatidir.

Hissiy aloqaga bo‘lgan ehtiyoj ularning o‘qituvchilari, tengdoshlari, kattalar hamda o‘zlaridan kichiklarga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Kattalar bilan bo‘lgan muloqot ularning tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatishlariga ko‘maklashadi. Kattalarning ayrim bolalarga bergen bahosi o‘quvchilarning mazkur tengdoshlari bilan muloqotga kirishishlariga, mas’uliyatli bo‘lishga asos bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirishda mакtab va ota-onalarning hamkorliginining eng yaxshi pozitsiyasi – uch asosiy shartga javob berishi kerak: adekvatlilik, qayishqoqlik va bashorat qilishlik.

Katta yoshli kishi pozitsiyasining adekvatligi o‘z farzandi yoki tarbiyaluvchisining fazilatlarini real aniqlikda baholash, uning individuallagini ko‘ra olish, tushunish va hurmat qila bilishga asoslanadi.

O‘qituvchi yoki ota-onalarning ko‘nishga moyilligi (qayishqoqlik) muloqot tarzi, kichik mакtab yoshidagi o‘quvchining ulg‘ayishiga qarab hamda oila turmushi sharoitlari turli o‘zgarishlariga bog‘liq ravishda unga ta’sir etish usullarini o‘zgartirishga tayyorlik va qodirlik sifatida ko‘rib chiqiladi.

Pozitsianing bashorat qilishligi o‘quvchi shaxsining “yaqin rivojlanish zonasasi”ga va ertangi kun vazifalariga mo‘ljal olishida ifodalanadi. Bu katta yoshli kishining ortda qoldiruvchi tashabbusi bo‘lib, kichik mакtab yoshidagi o‘quvchining kamoloti, istiqbollarini hisobga olgan holda unga umumiy yondashuvni o‘zgartirishga qaratilgan.

Tarbiyaning mazmun modellarini hisobga olgan holda sinergetik yondashuv asosida o‘quvchilarda mas’uliyat hissini shakllantirishda o‘qituvchi va ota-onalar oldida jiddiy vazifa turadi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish bo‘yicha yangi tarbiyaviy strategiyani qo‘llash asosida ko‘p qirrali ish olib borish talab qilinadi.

**Foydalanilgan manbalar:**

1. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa // Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.
2. Tojiboyeva X.M. “Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdag‘i o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari” // Monografiya. – Toshkent: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2021. – 208 bet
3. 1001 savolga psixologning 1001 javobi / G.B. Shoumarov tahriri ostida. YuNESKO, YuNPFA loyihasi asosida. – T.: Mehnat, 2001. – 192 b.



4. Begmurzayevich, D. B. (2022). O 'QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. *Ijodkor o 'qituvchi*, 2(20), 52-59.
5. Muhammadjonovna, U. N., Makhmutovna, T. H., & Kurbonovich, M. U. (2020). IMPROVING THE MECHANISM OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF A DEMOCRATIC AND LEGAL SOCIETY. *JCR*, 7(12), 3133-3139.
6. Mukhammedovna, U. N., & Oyturaxonovna, I. S. (2019). IMPROVING SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH IN UZBEKISTAN AS THE DEMOCRACY AND DEVELOPMENT OF LEGAL SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
7. Oyturaxonovna, I. S. (2022). SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA MAS'ULIYATLI MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(10), 74-79.
8. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 22(12), 127.
9. Джалаев, Б. Б., Хатамов, Х. А., & Насайдинова, Ф. У. (2016). Преимущества коллективного обучения. *Ученый XXI века*, 40.
10. Ибрагимова, Ш. О. (2019). РОЛЬ СЕМЬИ В ФОРМИРОВАНИИ ЦЕННОСТНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ У МОЛОДЕЖИ О БРАКЕ И СЕМЬЕ. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 84-86).
11. Сиддиков, Б. С., & Джалаев, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. *Учёный XXI века*, (6-2 (19)), 41-44.
12. Сиддиков, Б. С., & Джалаев, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. *Учёный XXI века*, (6-2 (19)), 41-44.